



BUXORO VILOYAT
STATISTIKA BOSHQARMASI

**BUXORO VILOYATIDA
QURILISH ISHLARI**

**2022- YIL
YANVAR-MART**

2022- yilning yanvar-mart oyida, Buxoro viloyatida jami **1 548,0** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʼsish surʼati 2021- yilning yanvar-mart oyiga nisbatan **102,8 %** ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʼyicha shakllanadi.

Yirik korxona va tashkilotlar

27,6

20,0

52,4


Norasmiy sektor

Kichik korxona
va mikrofirmalar

**2022- yil 1-aprel holatiga
ko‘ra qurilish ishlari
bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan
korxona va tashkilotlar, birlikda**



Yillar kesimida soni



1 788

Bino va inshootlar
qurish


298

Fuqarolik obyektlarini
qurish

857

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

Hududlar kesimida



Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o’sishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 2021- yilning mos davri bilan solishtirganda o’sish sur’ati 104,2 foizga oshgan.

Qurilish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quydagи yo‘nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo‘nalishi 60,8 foiz ulushi tashkil etib, o’sish sur’ati 2021- yilning mos davriga nisbatan 104,7 foizga oshgan;

fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 10,1 foiz ulushi tashkil etib, o’sish sur’ati 2021- yilning mos davriga nisbatan 121,1 foizga oshgan;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 29,1 foiz ulushni va 98,4 foiz o’sish sur’atini tashkil etdi.

	Holatiga :		o'tgan yiliga nisbatan, % da
	01.04.2021- y.	01.04.2022- y.	
Buxoro viloyati	2 795	2943	104,2
Buxoro shahri	940	952	101,3
Kogon shahri	118	128	108,5
<i>tumanlar:</i>			
Olot	72	78	108,3
Buxoro	229	229	100,0
Vobkent	124	124	100,0
G'ijduvon	192	198	103,1
Kogon	136	149	109,6
Qorako'l	107	107	100,0
Qorovulbozor	50	55	110,0
Peshku	154	172	111,7
Romitan	231	261	113,0
Jondor	232	244	105,2
Shofirkon	239	246	102,9



**2022- yil 1- mart holatiga ko‘ra
Buxoro viloyatida
faoliyat ko‘rsatayotgan qurilish
korxonalari ulushi, % da**




Buxoro sh. (32,3)



Romitan t. (8,9)



Shofirkon t. (8,4)



Qurilish ishlari 2022- yil yanvar-mart uchun

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Buxoro viloyati	1 548,0	310,0	810,6	427,4
Buxoro sh.	343,5	28,2	207,1	108,2
Kogon sh.	70,9	44,4	14,2	12,3
tumanlar:				
Olot	102,4	30,5	47,8	24,1
Buxoro	119,2	4,7	74,6	39,9
Vobkent	47,5	-	29,7	17,8
G'ijduvon	117,7	0,1	77,0	40,6
Kogon	117,4	40,8	48,1	28,4
Qorako'l	77,8	0,0	56,2	21,5
Qorovulbozor	115,9	96,5	16,1	3,4
Peshku	97,7	-	60,5	37,2
Romitan	147,6	53,0	49,1	45,5
Jondor	95,8	-	71,1	24,7
Shofirkon	94,6	11,7	59,1	23,8




2022- yilning yanvar-mart oyida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 310,0 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021- yilning mos davriga nisbatan 90,3 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2021- yildagi ko'rsatkich darajasidan 2,3 % punktg'a kamayib, 20,0 % ni tashkil etdi.


Qurilish ishlari

2022- yil yanvar-mart uchun



Pudratchi – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish-montaj, qayta ta'mirlash, kapital ta'mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug'ullanadi.





MA'LUMOT UCHUN: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Qorovulbozor tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 83,2 % i yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 79,8%), Romitan tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 35,9% i yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 86,9 %.) ga to'g'ri keldi.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



2022- yilning yanvar-mart oyida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 52,4% i to‘g‘ri kelib, 2021- yil yanvar-mart ko‘rsatkichiga nisbatan 0,1 % punktga ko‘paydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning mos davriga nisbatan 100,6% ni tashkil etgan holda 810,6 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.

Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, % da




52,4

2022- yil
yanvar-mart

52,3


2021- yil
yanvar-mart



MA’LUMOT UCHUN: joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko‘rsatkichi Jondor tumanida (71,1 mlrd. so‘m yoki umumiyligi hajmiga nisbatan 74,2%), Qorako‘l tumanida (56,2 mlrd. so‘m yoki 72,3 %) va G‘tijduvon tumanida (77,0 mlrd. so‘m yoki 65,4 %)ga to‘g‘ri keldi.


Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari ulushi 27,6 % ni tashkil etdi yoki 427,4 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi. 2021- yilning mos davriga nisbatan 118,3 % ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **34,2** mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa **717,4** mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Ularning respublikadagi ulushi mos ravishda **4,7 %** va **95,3 %** ni tashkil etdi.



**Umumiy hajmdan yangi qurilish,
rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi
2022- yil yanvar-mart oyida**



Bajarilgan qurilish ishlaringning katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlaringning **43,1 %** i yoki **323,8** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

16,4 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **53,1** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **16,4 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **212,2** mlrd. so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **65,5 %** ni tashkil etdi.

65,5 %

18,1 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **58,5** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **18,1 %** ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-mart oyida

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan foizda
Buxoro viloyati	1 548,0	102,8	100,0
<i>shahar:</i>			
Buxoro sh.	343,5	103,2	22,2
Kogon sh.	70,9	139,7	4,6
<i>tuman:</i>			
Olot	102,4	110,2	6,6
Buxoro	119,2	120,3	7,7
Vobkent	47,5	100,4	3,1
G'ijduvon	117,7	104,7	7,6
Kogon	117,4	128,7	7,6
Qorako'l	77,8	100,5	5,0
Qorovulbozor	115,9	102,5	7,5
Peshko'	97,7	104,3	6,2
Romitan	147,6	69,3	9,5
Jondor	95,8	101,0	6,2
Shofirkon	94,6	109,2	6,2



Ma'lumot uchun: Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlaringin asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

Bino va inshootlar qurilishi



ulushi % da

4,0

2021- yil
yanvar-mart

7,4

75,6

20,4

73,1

19,5

2022- yil
yanvar-mart



Yirik qurilish
tashkilotlari



Kichik korxona
va mikrofirmalar



Norasmiy
sektor

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 7,4 % ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-martdagi ko'rsatkichga nisbatan 3,4 % punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2021- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 2,5 % punktga kamayib, 73,1 % ni tashkil etdi.


Norasmiy sektoring ulushi esa 2021- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,9 % punktga kamayib, 19,5 % ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 22,2 % ni tashkil etdi va 2021- yil yanvar-martga nisbatan 1,4 % punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 77,8 % (1,4 % punktga ko'payish) hamda norasmiy sektorning ulushi 0,0 % ni tashkil etdi.

ulushi % da



Yirik qurilish tashkilotlari


2021- yil yanvar-mart



Kichik korxona va mikrofirmalar

2022- yil yanvar-mart

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2021- yilning mos davriga nisbatan 2,7 % punktga kamaydi va 38,2 % ni tashkil etdi. Qolgan 61,8 % i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 2,9 % punktga ko'paydi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-mart


	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	shu jumladan:		
		Bino va inshootlarni qurish	Fuqarolik obyektlarini qurish	Ixtisoslashti- rilgan qurilish ishlari
Buxoro viloyati	1 548,0	1 038,0	274,1	235,9
<i>shahar:</i>				
Buxoro sh.	343,5	235,4	74,8	33,3
Kogon sh.	70,9	48,8	14,4	7,7
<i>tuman:</i>				
Olot	102,4	53,4	11,1	37,9
Buxoro	119,2	87,2	20,4	11,5
Vobkent	47,5	35,1	7,8	4,5
G'ijduvon	117,7	90,1	15,7	12,0
Kogon	117,4	77,8	28,0	11,6
Qorako'l	77,8	58,5	10,5	8,8
Qorovulbozor	115,9	15,2	29,2	71,5
Peshko'	97,7	73,8	14,5	9,4
Romitan	147,6	127,9	12,2	7,5
Jondor	95,8	68,6	16,2	11,0
Shofirkon	94,6	66,1	19,3	9,2



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-mart



ulushi % da



Hududlar kesimida aholi jon boshiga qurilish ishlari 2022- yil yanvar-mart uchun

	Aholi jon boshiga qurilish ishlari, ming. so'm	O'sish sur'ati, % da
Buxoro viloyati	781,8	101,2
<i>shahar:</i>		
Buxoro sh.	1 207,9	102,1
Kogon sh.	1 135,9	137,9
<i>tuman:</i>		
Olot	1 009,0	108,8
Buxoro	691,0	118,0
Vobkent	330,0	98,8
G'ijduvon	377,0	103,0
Kogon	1 443,5	126,0
Qorako'l	464,0	99,1
Qorovulbozor	6 070,1	99,9
Peshko'	770,0	102,5
Romitan	1 006,7	68,0
Jondor	533,5	99,3
Shofirkon	519,8	107,5



Hududlar kesimida 2022- yil yanvar-mart oyida aholi jon boshiga qurilish ishlari hajmi bo'yicha birinchi o'rinni Qorovulbozor tumani — 6 070,1 ming so'm (yoki, 2021-yilning mos davriga nisbatan 99,9 %), undan keyin mos ravishda Kogon tumani — 1 443,5 ming so'm (yoki 126,0 %), Buxoro shahri – 1 207,9 ming so'm (yoki 102,1 %), Kogon shahri – 1 135,9 ming so'm (yoki 137,9 %), Olot – 1 009,0 ming so'm (yoki 108,8 %) va Romitan– 1 006,7 ming so'm (yoki 68,0 %) tumanlari egalladi.

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni: **(65) 223-81-99**